

RAQAMLI IQTISODIYOT VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA

Mirzaliyev Muxtorjon Murod o'g'li

Menejment va zamonaviy texnologiyalar universiteti “Raqamli iqtisodiyot”
yo‘nalishi magistranti

E-mail: muxtor1119090@gmail.com

Jumaboyeva Pokiza G‘ayrat qizi

Menejment va zamonaviy texnologiyalar universiteti magistranti

E-mail: pokizajumaboyeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi uchun ham uning dunyo miqyosidagi raqobat bardoshligini belgilab beradigan strategik ahamiyatga molik masalalardan biri hisoblanadi. Bu esa davlatimizga raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, uni eng kerakli sohalarga yo‘naltirish va bu jarayonni imkoniyat darajasida rag‘batlantirish zarurligi demakdir.

Kalit so‘zlar: Hex-agency , Digital transformation strategists, Technologists, Raqamli transformatsiya, raqamlashtirish, elektron tijorat, onlayn to‘lov, infratuzilma, kiberxavfsizlik, “sharing-economy”, avtomatlashtirilgan reestrlar, blokcheyn texnologiyalar, “Raqamli idora”, raqamli o‘qitish markazi, rivojlanish tendensiyalari.

ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ

Мирзалиев Мухторжон Мурод угли

Магистрант Университета управления и современных технологий по
специальности “Цифровая экономика”

muxtor1119090@gmail.com

Жумабоева Покиза Гайрат кизи

Магистрант Университета менеджмента и современных технологий

pokizajumaboyeva@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Развитие цифровой экономики является одним из вопросов стратегического значения для Республики Узбекистан, определяющим ее глобальную конкурентоспособность. Это означает, что необходимо создать условия для развития цифровой экономики в нашей стране, направить ее в самые необходимые направления и максимально стимулировать этот процесс.

Ключевые слова: Хех-агентство, Стратеги цифровой трансформации, Технологи, Цифровая трансформация, цифровизация, электронная коммерция,

онлайн-платежи, инфраструктура, кибербезопасность, “sharing-economy”, автоматизированные реестры, технологии блокчейн, “Цифровой офис”, цифровой учебный центр, тенденции развития.

DIGITAL ECONOMY AND DIGITAL TRANSFORMATION

Mirzaliyev Muxtorjon Murod ugli

Graduate student of “Digital Economy” department of the
University of Management and Future Technologies
E-mail: muxtor1119090@gmail.com

Jumaboyeva Pokiza

Master’s student at the University of Management
and Future Technologies
E-mail: pokizajumaboyeva@gmail.com

ABSTRACT

The development of the digital economy is one of the strategically important issues for the Republic of Uzbekistan, which determines its global competitiveness. This means that our country needs to create conditions for the development of the digital economy, direct it to the most needed areas and stimulate this process as much as possible.

Keywords: Hex-agency, Digital transformation strategists, Technologists, Digital transformation, digitization, e-commerce, online payment, infrastructure, cybersecurity, “sharing-economy”, automated registers, blockchain technology, “Digital Office”, digital training center, development trends.

KIRISH

Milliy iqtisodiyotimizning yana bir muhim ajralib turadigan jihati shundaki, YIM asosiy qismi davlat korporatsiyalari (yoki davlat ishtiroki ulushi katta bo‘lgan kompaniyalar) tomonidan yaratiladi. Bunday sharoitlarda profilli vazirliklar yoki davlat korporatsiyalari rahbarligi ostida industrial raqamli platformalar yaratish eng oqilona qadam bo‘lib hisoblanadi.[2] Bunday platformalar raqamli iqtisodiyotning tez rivojlanishi va unga mos keluvchi texnologiyalarning keng tarqalishi uchun zarur infratuzilma bazisini yaratadi. Fikrimcha, raqamli iqtisodiyot platformalari tuzishda asosiy e’tiborni quyidagi yo‘nalishlarga qaratish zarur: telekommunikatsiyalar, energetika, transport, sog‘likni saqlash, soliq va soliqqa tortish, dori-darmonlar

logistikasi, ma'lumotlarni qayta ishlash, turizm, tashqi iqtisodiy faoliyat, ko'chmas mulk savdosi va ishlab chiqarish. Aynan shu sohalarning rivojlanishi kerakli infratuzilma va mos texnologik bazis yaratishga imkon beradi. So'ngra ularni iqtisodiyotning boshqa sohalarga ko'chirgan holda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni maksimal darajada tez shakllantirish mumkin bo'ladi.

ASOSIY QISM

Raqamli texnologiya bo'yicha direktor tushunchasi bu kompaniyani biznes modelini va biznes jarayonlarini tubdan o'zgartirishdir. Raqamli transformatsiya dasturini boshqarishda moliyaviy va tashkiliy resurslarni jalb qilgan xolda iqtisodiy samaradorlikka erishish. Menendjer bu raqamli transformatsiyaga ma'sul xodim hisoblanadi va amaldagi faoliyatni raqamli transformatsiyalashga xizmat qiladi. Birinchi navbatda bank, sug'urta, media va ko'ngilochar, ta'lim va turizm, telekommunikatsiya va chakana savdo. Rivojlangan mamlakatlarda Raqamli biznes strategiyalari bo'yicha boshqaruvchi va bosh direktorlarning strategik maslahatchisi sifatida 40% ga yaqin, raqamli marketing bo'yicha 40% ko'proq xodim faoliyat yuritmoqda.[6]

Raqamli transformatsiya jarayonlari Telekommunikatsiya, mediakompaniya, bank, sug'urta, transport, turizm, chakana savdo va ta'limda keng joriy etilmoqda. Farmasevtika, ximiya, ishlab chiqarish, energetika va qazilma boyliklarni ishlash sohaslarida kam joriy etilgan. [9]

Raqamli iqtisodiyotning bir qancha afzalliklari hamda ijobiy tomonlari mavjud. Masalan, axborot-kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi inson uchun eng qimmatbaho bo'lgan vaqtni tejashga, undan unumli foydalanishga ko'maklashishi mumkin. Biron bir kitobning chop etilgan ko'rinishini sotib olish shu kitobning elektron formatini sotib olishdan qimmatroqqa tushadi. Bundan ko'rinadiki, biz axborotkommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi orqali pul mablag'larimizni ham qisman tejab qolishimiz mumkin. Kommunal to'lovlarni amalga oshirish uchun banklarda soatlab navbat kutib turishimizga hojat qolmaydi, istalgan joydan turib, istalgan ishni amalga oshirishimiz mumkin bo'ladi. Uyda o'tiradigan yoki yosh bolali ayollarimiz uchun ham bu ancha qo'l keladi. Ular uy yumushlarini bajargan holda, uylaridan chiqmay turib, onlayn savdo bilan shug'ullanib, pul topish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari, ushbu texnologiyalardan ta'lim sohasida ham unumli foydalanish mumkin bo'ladi. O'quvchi va talabalarning davomatini nazorat qilish, darslarni o'zlashtirish natijalari hamda yutuqlaridan xabardor bo'lish imkoniyati tug'iladi.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish albatta, ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga, kompaniyalar raqobatbardoshligining o'sishiga, ishlab chiqarish

xarajatlarning kamayishiga, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga, yangi zamonaviy kasblarning paydo bo‘lishiga ta’sir etmay qolmaydi. Qisqacha qilib aytganda, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi hayotimizni ijobiy tomonga o‘zgartirishi mumkin.[5]

Yelektron hukumatga doir elementlarni tatbiq etish va raqamli iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash O‘zbekistonning yaqin istiqboldagi taraqqiyot rejasidan mustahkam o‘rin olgan. Bu, birinchi navbatda, elektron hujjat almashish ulushini yanada oshirish va davlat xizmatlarining muayyan qismini Davlat xizmatlari markazlari orqali bosqichma-bosqich ravishda elektron shaklga o‘tkazish vazifalariga tegishlidir. Telekommunikatsiya infratuzilmasi bu jarayonda muhim vazifani bajaradi.

Raqamli iqtisodiyotga bo‘lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro‘y bergan jiddiy o‘zgarishlar tufayli sezilarli darajada o‘sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o‘zaro muloqotni yanada tez va oson yo‘lga qo‘yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo‘ldi.

Iqtisodiyot diversifikatsiyasi va dinamikasi qanchalik yuqori bo‘lsa, mamlakat ichida va tashqarisida noyob axborotlar aylanmasi shunchalik ko‘p, milliy iqtisodiyotlar ichida axborot trafigi esa shu qadar salmoqli bo‘ladi. Shu bois ishtirokchilar soni ko‘p va IT xizmatlar keng tarqalgan bozorlarda raqamli iqtisodiyot jadal sur‘atlarda rivojlanadi. Ayniqsa, bu - transport, savdo, logistika va shu singari internet bilan faol ishlovchi sohalarga cheksiz qulayliklar yaratadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, ularda elektron segmentning ulushi YaIMning 10 foiziga yaqinlashib, 4 foiz aholi bandligini ta‘minlaydi. Yeng ahamiyatlisi, bu ko‘rsatkichlar barqaror tarzda o‘sib boradi. Shubhasiz, raqamli iqtisodiyotning samaradorligiga nafaqat axborot texnologiyalarining qamrovi va infratuzilmaning mavjudligi, balki ishbilarmonlik muhiti, inson kapitali va muvaffaqiyatli boshqaruv instrumentlari kabi standart iqtisodiy mezonlar ham ta’sir ko‘rsatadi. Binobarin, iqtisodiy taraqqiyot aynan ularga tayanadi, bu esa ushbu mezonlarning raqamli iqtisodiyot rivojlanishida avvalgiday muhim o‘rin tutishini bildiradi.[10]

Hozir butun dunyo bo‘ylab yangi servislar va biznes modellarni yaratish uchun IT instrumentlardan foydalanadigan eski va yangi kompaniyalar aksariyat sohalarda etakchi bo‘lgan kompaniyalarga kuchli raqobat tug‘dirmoqda. Prognozlarga ko‘ra, yaqin yillarda makroiqtisodiyot «lean production», addiktiv, nano va biotexnologiya mezonlariga tayanadigan ishlab chiqaruvchilarga qattiq bog‘liq bo‘lishi kutilmoqda. Shu munosabat bilan oqilona boshqaruv uchun zarur hisoblangan axborot ko‘lami ham

ortib boradi, ishlab chiqarish va fuqarolar muloqoti, biznes va davlat organlarini boshqarish tuzilmasi esa jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechiradi.[7]

Texnologik raqamli muhit - bu yuridik va jismoniy shaxslar hamkorlikdagi faoliyat uchun butunlay yangi muloqotni yo'lga qo'yadigan «akvarium» hisoblanadi. Axborot texnologiyalari korxonalariga butunlay yangi, yanada jadal ish sur'atlarini o'zlashtirish hamda xizmat va mahsulotlar shaklini xilma-xillashtirishga imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, tadqiqotchilar qisqa saqlanadigan mahsulotlarning bozorga chiqarilishi haqida ham gapirishmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasi haqida gapiradigan bo'lsak, axborot texnologiyalari ko'plab kundalik vazifalarni hal qiladi, buning natijasida esa yirik ko'lamdagi amallar tezroq, arzonroq, qulayroq va o'rtadagi vositachilarsiz bajariladi. Yelektron savdo, internet-banking va boshqa shu kabi zamonaviy yo'nalishlar kundan kunga rivojlanib bormoqda. Natijada daromadni oshirish uchun aksar sohalarda avtomatik tarmoqli servislar (masalan, sifatli veb-sayt yoki mobil ilova kabi) biznesdagi vositachilar o'rnini egallamoqda. Buning samarasi o'laroq biznes xizmatga belgilangan narxlarni sezilarli darajada tushirishi, makroiqtisodiy yo'nalishda esa yakka ishlab chiqarish va noto'liq bandlik ko'rsatkichlari o'sishi mumkin. Shuningdek, kraudfanding va kraudsorsing kabi yo'nalishlar ham hozirda yangi iqtisodiy texnologiyalar sirasiga kiritilmoqda. Iqtisodchilarning fikriga ko'ra, ayni vaqtda bu kabi o'zgarishlar natijasida qo'shimcha qiymatni chiqarib olish amaliyotiga asoslangan iqtisodiyot hamkorlik va manfaatlarni baham ko'rish («sharing-economy») iqtisodiyotiga almashmoqda.[8] Bu esa bozordagi raqobat o'z o'rnini o'zaro manfaatli kooperatsiyaga va hamkorlikka faol bo'shatishi, shu bilan birga, vertikal muloqotdan o'zaro teng munosabatlar va bir-birini to'ldiruvchi xizmatlarga o'tishiga umid uyg'otadi. Taxminlarga ko'ra, bu servislar sonining ortishi va xizmatlarga doir elektron savdo hajmining o'sishida o'z aksini topadi. Ta'kidlanishicha, raqamli texnologiyalar iqtisodiyotga bog'liq 50 foizdan ortiq sohalarni keskin o'zgartirib yuboradi.

Raqamli iqtisodiyotning eng faol drayveri - bu davlatdir. U raqamli iqtisodiyotning asosiy buyurtmachisi va iste'molchisidir. Masalan, Xitoy bu maqsadlar uchun 9 mlrd dollar atrofida mablag' sarflagan. Bozor kapitalizatsiyasi 210 mlrd dollardan ziyod bo'lgan Alibaba internet resursi ushbu sarmoyalarning to'g'ri yo'naltirilganini isbotladi. Raqamlashtirishdan maksimal foyda olishni istagan davlat, zaruriy yuqori texnologik mahsulotlarning bozorini yaratishi va uni qo'llab-quvvatlashi lozimdir. Shu bilan birga, parallel tarzda davlat boshqaruvi, muhim sohalarda va korxonalar uchun xususiy ilovalarni rivojlantirgan holda, elektron iqtisodiyotning asosiy platformalarini nazorat qiluvchi instrumentlarni o'z izmida saqlab qolish ham muhim hisoblanadi. Xususan, Yaponiya texnologiyalarni xarid qilgan bo'lsa-da, ushbu

yoʻnalishda oʻzining ishlab chiqaruvchi tarmoqlarini yaratolmagani va texnik ishlanmalar darajasini muttasil yuqori holatda tutolmagani tufayli, raqamli iqtisodiyotdagi etakchi pozitsiyalarni qoʻldan boy berdi. Janubiy Koreya esa elektron hukumat va elektron vositachilikka (yelektron tijorat faoliyati va davlat tender xaridlarini oʻtkazish uchun) milliy budjetning 1 foiziga teng miqdorda sarmoya kiritib, har yili 10-15 milliard dollar hosil qilmoqda va xarajatlarni 30-40 baravar qoplaydigan daromad olmoqda.

XULOSA

Shunday qilib davlat va xususiy sektorda call-markazlarni tashkil qilish, mobil ilovalarni yaratish va davlatga tegishli internetplatformalarni reinjining qilish orqali mana shunday natijaga erishildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)

1. Nataniel Popper. *sifrovoe Zoloto. Neveroyatnaya istoriya bitkoyna ili o tom, kak idealisty i biznesmeny izobretayut dengi zanovo*, 2016, 350 str.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq soʻzi” gazetasi. 2020 yil 25 yanvar
3. Svetkov V.A. *Realizatsiya strategiy novoy industrializatsii ekonomiki* // Vestnik Finansovogo universiteta, 2016. – T. 20. – №6 (96). – S. 19–30.
4. Kovalchuk Yu.A., Ishenko M.M. *Vysokotekhnologichnoe proizvodstvo kak «novo okno vozmojnostey» v postkrizisnoy ekonomike* // Korporativnoe upravlenie i innovatsionnoe razvitie ekonomiki Severa: Vestnik Nauchnoissledovatel'skogo sentra korporativnogo prava, upravleniya i venchurnogo investirovaniya Syktyvkar'skogo gosudarstvennogo universiteta, 2016. – №3. – S. 25–33
5. Abulov, M. O. (2020). *O nekotorye prilozheniya teorii bulevykh funktsiy*. In *Modern stochastic models and problems of actuarial mathematics* (pp. 73-74).
6. Abulov, M. O. (2019). *KRAEVAYa ZADACHA DLYa URAVNENIYa SMESHANNO-SOSTAVNOGO TIPA*. *Aktualnye problemy matematiki i informatiki: teoriya, metodika, praktika*, 15.
7. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2021 yil 1/2021 (№ 00051) <http://iqtisodiyot.tsue.uz> 309 RAQAMLI IQTISODIYOTNING BUGUNGI HOLATI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Kurpayanidi Konstantin Ivanovich Farg‘ona politexnika instituti dotsenti, i.f.n. Piyosov
Asrorjon Axrorjon o‘g‘li Farg‘ona politexnika institute

8. G‘.M. PORSAEV, B.SH. SAFAROV, D.Q. USMANOVA RAQAMLI
IQTISODIYOT ASOSLARI (Darslik)

9. “Raqamli iqtisodiyot: taraqqiyot sari qisqa yo‘l” Sanobar Jumanova “Yangi
O‘zbekiston” gazetasi 17-sentabr 2020

10. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-
fevral, 2021 yil 288 1/2021 (№ 00051) <http://iqtisodiyot.tsue.uz> РАҚАМЛИ
ИҚТИСОДИЁТНИНГ АҲАМИЯТИ ВА РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ
Аскарлов Нодир Ибрагимович